



THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL SPORTS RELATIONS IN UZBEKISTAN DURING THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE

Nabijon Ortikboyevich Maksumov

teacher, Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, independence, international sports relations, sports diplomacy, Olympic movement, sports integration.

Received: 20.07.25

Accepted: 21.07.25

Published: 22.07.25

Abstract: The article “The Development of International Sports Relations in Uzbekistan in the Early Years of Independence” examines the formation and evolution of international cooperation in sports during the first years of Uzbekistan's independence. It highlights the role of sports diplomacy in the country's new political and economic context, Uzbekistan's integration into global and regional sports organizations, sports exchanges with foreign nations, and the significance of international collaboration in the development of youth sports and the Olympic movement.

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA XALQARO SPORT ALOQALARINING RIVOJLANISHI

Nabijon Ortiqboyevich Maqsumov

o‘qituvchi, Farg‘ona davlat universiteti
Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, mustaqillik, xalqaro sport aloqalari, sport diplomatiyasi, olimpiada harakati, sport integratsiyasi.

Annotatsiya: “Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda xalqaro sport aloqalarining rivojlanishi” maqolasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillarida sport sohasidagi xalqaro hamkorlikning shakllanishi va rivojlanish jarayonlariga bag‘ishlangan. Maqolada mamlakatning yangi siyosiy-iqtisodiy sharoitida sport diplomatiyasining o‘rni, O‘zbekistonning jahon va mintaqaviy sport tashkilotlariga integratsiyasi, xorijiy mamlakatlar bilan sport almashinuvlari, shuningdek, yoshlar sporti va olimpiya

harakatining rivojida xalqaro hamkorlikning ahamiyati yoritilgan.

РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СПОРТИВНЫХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Набижон Ортикбоевич Максумов

преподаватель, Ферганский государственный университет
Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, независимость, международные спортивные связи, спортивная дипломатия, олимпийское движение, интеграция в спорт.

Аннотация: Статья «Развитие международных спортивных связей в Узбекистане в первые годы независимости» посвящена процессам формирования и развития международного сотрудничества в сфере спорта в первые годы после обретения Узбекистаном независимости. В работе рассматривается роль спортивной дипломатии в новых политико-экономических условиях страны, интеграция Узбекистана в мировые и региональные спортивные организации, спортивные обмены с зарубежными странами, а также значение международного сотрудничества в развитии молодежного спорта и олимпийского движения.

Kirish

Sport – qadimdan tinchlik va do‘stlik elchisi hisoblanib, davlatlarni birlashtirgan, hatto urushayotgan davlatlar ham sport musobaqalari, Olimpiya o‘yinlari vaqtida urush harakatlarini to‘xtatganlar. YUNESKO deklaratsiyasida aytilishicha, «Xalqaro aloqalar jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishidagi asosiy omil hisoblanadi. Shu sohada bir-biri bilan hamkorlik qilish, umumiy manfaatlarni himoya qilish natijasida, sport aloqa vositasi sifatida maydonga chiqadi, xalqlar davlatlararo do‘stlik va hurmatni mustahkamlab, xalqaro muammolarning xal bo‘lishi uchun ijobiy muhit yaratadilar. Hamma manfaatdor davlat, nodavlat, milliy, xalqaro tashkilotlarning yaqin hamkorligi butun dunyoda xalqaro sport aloqalarining rivojlanishiga yordam beradi»[1:196]

Bugungi kunda xalqaro olimpiya harakati sport jarayonining asosini tashkil etadi. Ushbu ijtimoiy fenomenni «olimpizm», «Olimpiya harakati», «Olimpiya o‘yinlari» degan uchta tushuncha tavsiflaydi. Olimpizmning ijtimoiy ahamiyati umuminsoniy qadriyatlar, tinchliksevarlik, birdamlik, halollik g‘oyalariga asoslangan. Bundan tashqari, bu sport, san‘at, arxitektura, madaniyat, fan va texnikaning o‘ziga xos uyg‘unlashuvidir [2:52]. Olimpiya harakati

olimpizm g'oyalariga asoslangan sportni rivojlantirishga qaratilgan demokratik ijtimoiy taraqqiyotdir.

Asosiy qism

Xalqaro sport va Olimpiya harakatining keng rivojlanishi, qit'alarda turli xil sport musobaqalari, qit'a o'yinlarining o'tkazilishi, jahon chempionatlari va Olimpiya o'yinlarining an'anaviy tashkil etilishi har bir mamlakatda sport turlarini rivojlantirishni qadimdan taqozo etib kelgan. O'zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek: «Yillar davomida tarkib topgan bayram an'analari va tantanalari, san'atiga o'z hissasini qo'shgan mashhur sa'atkorlar, olimlar, faylasuflar, shoirlar va nihoyat, o'zining tarbiyaviy roliga, betakror aurasiga ega bo'lib kelgan sportga umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi sifatida qaraymiz, bularsiz olimpiya harakati, xattoki Olimpiya o'yinlari ham bo'lmas edi» [3].

Darhaqiqat, O'zR MOQ xalqaro sport tashkilotlari bilan olib borayotgan o'zaro munosabatlari va aloqalarida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning hissasi kattadir. Xususan, XOQ Prezidenti X.A.Samaranch O'zbekistonning olimpiya harakatiga qo'shayotgan ulkan hissasini yuqori baholab, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining bosh shtabi Lozannada (Shveytsariya) I.A.Karimovga «Olimpiya oltin ordeni»ni tantanali ravishda topshirishi buning yorqin isbotidir. Bu mukofotga faqatgina 50 kishi sazovor bo'lib, ular Rim papasi, qirol oilalari va boshqa dunyoning taniqli kishilar sazovor bo'lgan [4]. Bundan tashqari, X.A.Samaranchning ikki marotaba yurtimizga tashrifi (1991, 1995 yillar), Osiyo Olimpiya Kengashining Prezidenti va YUNESKO kabi xalqaro nufuzdagi tashkilotlarning rahbarlari, mas'ul xodimlarining O'zbekistonga kelishlari respublikamiz xalqaro sport aloqalarining rivojlanishdan dalolat beradi.

Yuqoridagi tadbirlar asosida 1996 yil avgustda Toshkentda «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyi ochildi. Unda mamlakatimiz sport tarixi, Olimpiya harakati, sportchilarning erishgan yutuqlari o'z ifodasini topdi. Ushbu muzeyning ochilish marosimida O'zbekistonga tashrif buyurgan Xalqaro Olimpiya qo'mitasining Prezidenti Xuan Antonio Samaranch quyidagi fikr-mulohazalarni bildirgan: «... Men O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov bilan uchrashuvimni zo'r qoniqish bilan eslayman. Ana shu uchrashuv asnosida O'zbekistonda sportga qanday e'tibor berilayotganiga, mamlakat rahbari sport harakatini qay darajada qo'llab-quvvatlashiga shaxsan guvoh bo'ldim. Shu boisdan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining «Oltin ordeni» unga munosib mukofot. Shu narsa menga ma'lumki, birinchi Prezident Islom Karimov homiyligida O'zbekistonda yirik xalqaro turnirlar o'tkazilmoqda. Bu yerda Olimpiya jarayonlarida ishtirok etishga xayrixohlik kuchli» [5]. Muzey eksponatlarini tomosha qilish uchun Fransiya, Italiya, Germaniya, Angliya, Shvetsiya, Rossiya, Bolgariya kabi davlatlar hamda Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya qit'alaridagi mamlakatlardan rasmiy delegatlar,

sayohatchilar va sportchilar tashrif buyurishmoqda. Haqiqatan ham, muzeyda qimmatbaxo eksponatlar ko'p bo'lib, ular nafaqat O'zbekiston, balki xalqaro olimpiya xarakati, milliy sport turlari tarixi hamda yurtimiz sporti an'analari to'g'risida hikoya qiladi. Bu yerda olimlar O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixiga oid hujjatlarni yig'ish, tahlil qilish, sport tarixi fondini yaratish bo'yicha ish olib boryaptilar. Ko'plab taniqli sportchilar o'zlarining g'oliblik nishonlari, medallarini, fotosuratlarini muzeyga in'om qilganlar. Asosiy eksponat sifatida XOQning birinchi Prezidenti I.A.Karimovga topshirilgan «Oltin ordeni», Osiyo Olimpiya kengashining «Oltin ordeni», XOQA tomonidan beshta qit'a ramzli oltin zanjir va kumush plastina, Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasining «Oltin marjoni» o'rin olgan.

Bundan tashqari O'zR MOQ Xalqaro Olimpiya qo'mitalari Assosiatsiyasining (XOQA) 199 mamlakat ichida teng huquqli a'zosi bo'lib, jahondagi eng yirik mamlakatlar bilan sport sohasida mustahkam aloqalarni o'rnatgan. Ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniyada sportchilarimizning Olimpiya o'yinlarida (Atlanta – yozgi va Solt Leyk Siti – qishki) ishtirok etishi hamda professional boks bo'yicha M. Abdul-layev, R. Chagayev va boshqalarning shu mamlakatda turib shug'ullanishlari, tajriba almashishlariga erishildi. Bu jarayonlar O'zbekiston Respublikasi MOQning XOQ, Osiyo va boshqa qit'alardagi nufuzli sport tashkilotlari, sport turlari bo'yicha federatsiyalar (uyushmalar) bilan bevosita bog'liq holda faoliyat yuritishining natijasi deb aytish mumkin.

Jahondagi ko'pgina mamlakatlarning milliy olimpiya qo'mitalarini O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi bilan yaqindan aloqador bo'lganligi sababli, futbol, basketbol, kurash, chim ustida xokkey, sport kurashlari, sharqona yakkakurashlar, shaxmat, badiiy gimnastika va boshqa sport turlari bo'yicha rasmiy musobaqalar mamlakatimizda o'tkazilmoqda.

Sport harakatini tashkil qilish, mashg'ulotlarni o'tkazish va musobaqalarni uyushtirishda sport turlari bo'yicha federatsiyalar (uyushmalar), murabbiylar va hakamlarning markaziy kengashlari faol ishtirok etadi. Ularning fidokorona mehnat samaralari tuman-shahar, viloyat va respublika miqyosida o'tkazib borilayotgan sport turlari bo'yicha birinchiliklar, kubok musobaqalari, ko'p bosqichli va uzluksiz sport musobaqalarini o'tkazishda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, mamlakat sportchilarining Markaziy Osiyo, Osiyo o'yinlari, jahon birinchiliklari, Olimpiya o'yinlaridagi yutuqlari ularning mehnat mahsulidir.

O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi o'z faoliyatida davlat idoralari va nodavlat tashkilotlari, jamg'arma uyushmalari, ayniqsa, «Dinamo», «Yoshlik», «Talaba», Kasaba uyushmalari, jismoniy tarbiya – sport jamiyatlari, Markaziy harbiy sport klubi (MHSK), mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti, sport turlari bo'yicha federatsiyalar, Assosiatsiyalari bilan hamkorlik qilmoqda.

MOQ ijroqo‘mi va boshqa rasmiy bo‘limlarning ish faoliyatlari respublikaning sport turlari bo‘yicha terma jamoalari, federatsiya rahbarlari bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatmoqda.

Turli xil rasmiy uchrashuvlar, chempionlarni tabriklash va taqdirlashga bag‘ishlangan yig‘ilishlar ko‘pincha «Olimpiya shon-shuhrati muzeyi»da olib borilmoqda. Tadbir MOQ hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, sport federatsiyalarining qo‘shma yig‘ilishlariga aylanib, eng zarur masalalarni hal qilishda muhim tadbir bo‘lib xizmat qilmoqda .

Xulosa

O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyasining eng muhim ko‘rsatkichi, bu mamlakatimiz vakillarining xalqaro sport uyushmalariga qabul qilinishi bilan bog‘liq. Istiqlolning dastlabki yillarida ko‘plab yetakchi mutaxassislarimiz xalqaro federatsiya va uyushmalar a‘zolari bo‘lishgan: G‘.Rahimov – Osiyo boks federatsiyasi prezidenti, Osiyo Olimpiya Kengashi vitse-prezidenti, V.Ligay – Osiyo taekvando federatsiyasi prezidenti, K.Yusupov – Xalqaro kurash federatsiyasi prezidenti, L.Ayrapetyans – Osiyo voleybol konfederatsiyasi raisi, S.Ro‘ziyev, M.Babayev, T.Nizayev – Osiyo Olimpiya kengashi a‘zolaridir, Z.Abdullayeva – Osiyo badiiy gimnastika texnik qo‘mitasi prezidentidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Международные нормативные акты ЮНЕСКО. – М., 1993. – С. 196.
2. Олимпия билими асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2002. – Б. 51-52.
3. Вручение высшей Олимпийской награды // Вечерний Ташкент. 1996, 9 февр.
4. Олимпия Академияси идоравий архив материалларидан.
5. Речь Президента И.А.Каримова на открытии Музея Олимпийской славы // Правда Востока. 1996, 3 сент.